

**MAQSUD YOSHLIGIDA ZIYRAK, SINCHKOV, SHIJOATLI.**

Toshkent davlat transport universiteti  
**Boyxurozov Diyorbek Sherzod o'g'li**

**Annotatsiya.** Ustoz Maqsud Shayxzodaning eng go‘zal asarlari o‘ziga xos o‘rin egallaydi. Umumturkona so‘zlarning serma’no tovlanishi, mohirona topilgan qofiyalarning qo‘llanilishi, badiiy vositalarning ta’sirchanligi singari uslubiy fazilatlari maftunkor tafakkurli Shayxzoda lirik qahramonini o‘quvchiga yanada hammaslak va hamfikr qiladi.

**Kalit so‘zlar:** Maqsud Shayxzoda, asar, badiiy, taqdir, vatan, Ozerbajon, shoir.

Nizomiy vatanida tug‘ilgan Shayxzoda falakning gardishi bilan o‘zbek tuprog‘iga kelib qolib, hayotining baxtli va fojiali kunlarini shu yerda kechirdi. Shu yerda shoir, dramaturg, adabiyotshunos olim, tarjimon va pedagog sifatida shakllanib, o‘zbek adabiyoti, adabiyotshunosligi va tarjima maktabi taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shdi. 1978 yili Maqsud Shayxzoda tavalludining 70 yilligi dastlab Toshkentda, so‘ngar Bokuda zo‘r tantana bilan nishonlandi. Qardosh mamlakatdagi yubiley tadbirlarida ishtirok etish uchun bir necha o‘zbek shoir va adabiyotshunoslari Bokuga bordilar. Ozarbayjon poytaxtidagi yubiley tantanalari yakunlangach, mehmonlar shoirning bolalik yillari kechgan Oqtoshga yo‘l oldilar. Oqtosh shahriga kiraverishdagi birinchi ko‘cha ham, shu ko‘chada savlat to‘kib turgan maktab-internat ham o‘zbek shoirining nomi bilan atalgan edi. Bino oldida Shayxzoda haykali bo‘lib, mehmonlar shu haykal poyiga gulchambar qo‘yanlaridan keyin, shoirning o‘quvchilik yillari o‘tgan tabarruk maktabni, u o‘qigan sinfni, shoir hayoti va adabiy faoliyatiga bag‘ishlangan muzeyni katta hayajon bilan tomosha qildilar. Adabiy kechada shoirning oqtoshlik o‘quvchilar ijrosidagi asarlarini diqqat-e’tibor bilan tingladilar. O‘zbek va ozarbayjon tillarida yangagan bu asarlar ikki qardosh xalqni bir-biri bilan butun umrga bog‘lagan shohi rishtalar bo‘lib ko‘rindi. Shoirning mashaqqatli hayoti kechgan, barcha yetuk asarlari maydonga kelgan, ijodiy mehnati singgan mamlakatda bunday haykal va muzeyning, uning nomi bilan atalgan qariyb biror manzilning yo‘qligi esa ularda afsus va nadomat tuyg‘ularini uyg‘otdi. Oqtosh kichik bir shahar bo‘lgani uchun shoir haykali qad ko‘targan gulzor shaharchaning ziyyaratgoh manzillaridan biri bo‘lib qolgan ekan. Yangi turmush bo‘sag‘asida turgan kelin va kuyovlar shoir haykali poyiga gul qo‘yib, do‘stlik va xushbaxtlikning bu otashin kuychisini ziyyarat etar ekanlar.

Ushbu unutilmas safarda ishtirok etgan kishilardan biri, Shayxzoda asarlarini uzoq yillar davomida to‘plash va nashr etish ishlari bilan mashg‘ul bo‘lgan Muhsin Zokirov safar xotiralari bilan o‘rtoqlashib, yozgan edi:

“Biz Maqsud Shayxzoda uy-muzeyini ham ziyorat qildik. Ikki qavatlchi chog‘roqqina bu uyda... Ma’sumbek bilan Fotimaxonim oilasida to‘ng‘ich farzand – bo‘lajak shoir Maqsudbek dunyoga kelgan. Shoирning enagasi to‘qson yoshga yaqinlashib qolgan Saboxonim o‘z oilasi bilan hali ham shu yerda istiqomat qiladi”.

Toshkentlik mehmonlar shoирning uy-muzeyini ziyorat etganlaridan keyin shahar jamoatchiligi bilan uchrashuv, so‘ngra qishloq xo‘jalik texnikumida Shayxzodaning 70 yilligiga bag‘ishlangan adabiy kecha bo‘lib o‘tdi. Bu kechaga Oqtosh ziyolilari yog‘ilib keldilar. Ular orasida Shayxzoda bilan bir mакtabda o‘qigan, u bilan tepishib katta bo‘lgan Idris Aliev ham bo‘lib, u mazkur maktabga hamon rahbarlik qilayotgan edi. U o‘zbek diyorining elchilari bilan qilgan suhabatida shoir haqidagi qimmatli xotiralarini hikoya qilib, bunday dedi:

“- Biz, Maqsud, Said, Shohid bir sinfda o‘qirdik. Oqtoshda biz ta’lim olgan bilim dargohi inqilobdan ancha avval Maqsudning otasi Ma’sumbekning sa‘y-harakati tufayli tashkil top gan yangi usuldagagi yagona mакtab bo‘lgan. Ma’sumbek mакtab va o‘quvchilar ahvolidan tez-tez xabar olib turardi. Peterburg universitetining tibbiyat fakultetini tugatgan bu ma’rifatparvar zot shaharning eng obro‘li kishilaridan edi. Inqilobdan so‘ng mazkur o‘quv maskani ilk sovet maktabiga aylantirildi. Bu borada ham Ma’sumbek muallimning faol ishtiroki bor. O‘rnii kelganda aytay: Maqsudning onasi Fotimabegim dugonalari Fotimaxon va Ozodabegim bilan birgalikda Oqtoshda xotin-qizlar sho‘basini tashkil etib, ayollar ozodligi yo‘lida kurash boshlagan birinchi onaxonlarimizdandir. Xalq ularni “qo‘sish Fotima va bir Ozoda”, deb mehr bilan tilga olar edi.

Maqsud yoshligida o‘zi ham tinib-tinchimas, bizlarga ham tinchlik bermas edi... Ziyrak, sinchkov, shijoatli, bir ishni boshladimi, oxiriga yetkazmay qo‘ymaydigan yigit edi u...”

Idris Aliev Shayxzoda bilan “rushdiya” mакtabida o‘qigan kezlari haqida hikoya qilar ekan, bir voqeani eslamay o‘tolmaydi. Bu, hali dramaturgiya nimaligini bilmagan Shayxzoda “pesa”sining o‘quvchilar ijrosida namoyish etilishidir. Shayxzodaning o‘zi ham bolalik davrining shirin xotiralaridan biri – shu voqeani Jamol Muhammraliga yozgan xatida bunday eslagen: “1923 yilda yozgan “28 aprel inqilobi” pesam sahnaga qo‘yildi. Bu pesaning sahnaga qo‘yilishiда Xalil Amin, Ismoil Aliev (hozirgi “Izvestiya” muxbirasi Elza Alieva7ning otasi, Ne’mon Mammadli va Said Rustamov (hozirda mashhur bastakor) kabi yor-birodarlar ishtirok etishgan”.

Modomiki, bahs Maqsudda ijod maylining uyg‘onishi bilan bog‘langan ekan, shu masalaga bir oz oydinlik kiritish ayni muddao. Shayxzoda hayotining so‘nggi yillarida e‘lon qilgan tarjimai holida shu masalaga to‘xtab, bunday so‘zlarni yozgan: “...Men agar kitobxonlarimga, hali alifboni egallamasdan oldin she‘r yaratganman, deb aytsam, ular balki mening bu gapimni yo hazil, yoki kinoyaviy ma’noda bir mubolag‘adur, deb talqin qilishlari mumkin. Ammo bu chin gap. Mening otam rahmatlik (o‘z zamonasining ilg‘or ziyolisi, doktor) odatda bolalarga she‘r o‘qib berar va keyin ayrim so‘zlarni aytib berib, shu so‘zga mos qofiya topishni bizlardan talab qilar edi. Qofiya ham vazn ohangiga qulog‘im o‘rganib ketib, men besh yasharligimda 8 - 10 misradan iborat bir masal to‘qiganim esimda. Albatta, muayyan fikr va syujetdan xoli bo‘lgan bu “masal” bo‘ri bilan olmaxon haqida to‘qilgan edi. Har qalay, she‘rga muhabbat umrimning ilk yillaridan boshlab qonimga, qalbimga, fikrimga singib ketganini jur’at bilan aytta olaman”.

Shunday qilib, Shayxzoda “rushdiya” maktabida barcha fanlardan a‘lo baholar olib o‘qish bilan birga sekin-asta she‘rlar ham yoza boshladi. Maqsuddagi she‘riy iste’dod kurtaklarini ko‘rgan muallimlar uning e’tiborini o‘sha davr uchun ahamiyatli bo‘lgan mavzularga qaratib, shu mavzularda she‘rlar yozishni maslahat berdilar.

1920 yilning so‘nggi kunlari edi... Ozarbayjonda sovet hokimiyatining o‘rnatalishi munosabati bilan Oqtoshga taniqli inqilobchi Narimon Narimonov keladigan bo‘ldi. Mashhur inqilobchining olis bir shaharchaga tashrifini oqtoshliklar katta shodiyona bilan qarshi oldilar. “Rushdiya” maktabi Oqtoshdagি ko‘rkam binolardan biri bo‘lgani uchun Narimon Narimonov bilan uchrashuv shu yerda o‘tdi. Taniqli davlat arbobining uzundan-uzoq nutqidan keyin so‘z Maqsudga berildi. U “qo‘lbola” sahnaga ko‘tarilib, muallimlarining “buyurtma”si bilan yozilgan “Girmizi askar nag‘masi” (“Qizil askar qo‘shig‘i”) degan she‘rini bolalarga xos ko‘tarinki ruh bilan o‘qidi. She‘rning:

Qizil o‘rdu nomimiz,

Yigitdir unvonimiz.

Mazlumlar ko‘p jang qilgan,

Xalol bo‘lsin qonimiz.

Bayrog‘imiz, shonimiz,

Usmonli unvonimiz.

Vatan - bizning jonimiz,

Xalol bo‘lsin qonimiz, -

degan satrlari jaranglashi bilan qarsaklar chalina boshladi. Narimon Narimonov havaskor shoirning oldiga kelib, uni quchoqlab o‘pdi. So‘ng u yozgan she‘rni olib

ketib, Bokuda nashr etilgan “Kommunist” gazetasining 1921 yil 12 dekabr sonida chop ettirdi. Bu, Shayxzodaning matbuotda e’lon qilingan ilk she’ri bo‘lib, u shu vaqtida endigina 13 yoshga to‘lgan edi.

Bu xotira so‘zlarini o‘qir ekanman, yuragimda yigirma yoshida ona yurtidan surgun qilingan shoirning ilk she’riy mashqlarini mehr bilan to‘plib, saqlab, uning xotirasini Oqdosh shahri miqyosida abadiylashtirishga katta hissa qo‘shgan bu ajoyib insonga nisbatan hurmat tuyg‘ularim jo‘sh urib ketadi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Mamurova, F., & Ataxanov, O. (2024). MAQSUD SHAYXZODA HAYOTI HAQIDA. Akademicheskie issledovaniya v sovremennoy nauke, 3(10), 111-116.
2. Mamurova, Feruza, and Durdona Obutjonova. "DESCRIBING MAKSUD SHAIKZODA." Current approaches and new research in modern sciences 3.4 (2024): 5-8.
3. Obutjonova, D. (2024). O‘ZBEK VA OZARBAJON XALQINING SEVIMLI SHOIRI. Akademicheskie issledovaniya v sovremennoy nauke, 3(10), 103-105. Mamurova F.I. i Durdona O. (aprel 2024 g.). MAKSUD ShAYXZODANING «MIRZO ULUGBEK»ASARI TALILI. V Mejdunarodnoy globalnoy konferensii (Tom 1, № 6, str. 79-81).
4. Durdona, O., & Mamurova, F. I. (2024, April). MAQSUD SHAYXZODA “TOSHKENTNOMA”. In International Global Conference (Vol. 1, No. 5, pp. 148-152).
5. Mamurova, F., & Obutjonova, D. (2024). MAQSUD SHAYXZODANING “JALOLIDDIN MANGUBERDI” DRAMASINING YOZILISH TARIXI VA VATANGA BO ‘LGAN MUHABBATI, JASORATINING IFODALANISHI. Akademicheskie issledovaniya v sovremennoy nauke, 3(12), 13-16.
6. Mamurova, F., & Obutjonova, D. (2024). DESCRIPTING MAKSUD SHAIKZODA. Current approaches and new research in modern sciences, 3(4), 5-8.
7. Durdona, O., & Islamovna, M. F. (2024, March). SHAYXZODA SIYMOSIGA TA’RIF. In International Global Conference (Vol. 1, No. 1, pp. 188-191).
8. Mamurova, F., & Qodirov, I. (2024). MAQSUD SHAYXZODANING “TOSHKENTNOMA”-SHUKRONALIK DOSTONI. Molodые uченые, 2(6), 87-89.
9. Islamovna, M. F. (2024). THE PLACE OF MAKSUD SHEIKZODA’S LIFE AND CREATION IN UZBEK NATIONAL LITERATURE. MEDITSINA, PEDAGOGIKA I TEXNOLOGIYa: TEORIYa I PRAKTIKA, 2(2), 471-474.

10. Mamurova, F. I., & ugli Abdubahabov, A. A. (2023). TWO FOLK POETS. "TRENDS OF MODERN SCIENCE AND PRACTICE", 1(3), 23-30.
11. Islomovna, M. F., & Abduvoxob o'g'li, A. A. (2023, January). Maqsud Shayxzodaning Hayoti Va Ijodi. In Interdisciplinary Conference of Young Scholars in Social Sciences (USA) (pp. 19-20).
12. Mamurova, F. I. (2021, May). ARTIST OF UZBEKISTAN MAKSUD SHEIKHZADE. In E-Conference Globe (pp. 176-178).
13. Islamovna, M. F. (2024, January). MAQSUD SHAYKHZADEH-TWO FOLK DILBANDI. In INTERNATIONAL CONFERENCE ON MODERN DEVELOPMENT OF PEDAGOGY AND LINGUISTICS (Vol. 1, No. 1, pp. 189-192).
14. Islomovna, M. F. (2024). O 'ZBEK ADABIYOTINING ATOQLI NAMOYANDALARIDAN BIRI MAQSUD SHAYXZODNING "JALOLIDDIN MANGUBERDI" ASARI. Yangi O'zbekistonda Tabiiy va Ijtimoiy-gumanitar fanlar respublika ilmiy amaliy konferensiyasi, 2(1), 89-92.
15. Islamovna, M. F. (2024). THE CREATION OF MAQSUD SHAYKHZODA-AS A GOLDEN LEGACY. " XXI ASRDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR, FAN VA TA'LIM TARAQQIYOTIDAGI DOLZARB MUAMMOLAR" nomli respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi, 2(1), 90-93.